

## SADDI ISKANDARIY DOSTONI

**Choriyeva Charos Baxodir qizi**

*Qashqadaryo viloyati Muborak tuman  
texnikumi Ona tili va adabiyot*

**Annotatsiya:** "Saddi Iskandariy" — buyuk o'zbek shoiri Alisher Navoiy tomonidan yozilgan epik dostonlardan biridir. Ushbu asar, Iskandar Zulqarnaynning hayoti va qahramonliklari haqida hikoya qiladi. Doston, nafaqat tarixiy voqealarni, balki falsafiy, axloqiy va ma'rifiy g'oyalarni ham o'z ichiga oladi. Saddi Iskandariy" dostoni nafaqat tarixiy voqea sifatida, balki insoniyatning ruhiy va axloqiy izlanishlari uchun muhim manba hisoblanadi. Bu asar o'zbek adabiyotida alohida o'rin tutadi va bugungi kunda ham o'qilmoqda hamda tadqiq qilinmoqda.

**Kalit so'zlar:** qahramonlik, adolat, tarixiy kontekst, ruhiy izlanish, o'zbek adabiyoti, ma'ifat, falsafa.

**Аннотация:** «Садди Искандарий» — один из эпосов, написанных великим узбекским поэтом Алишером Навои. Это произведение рассказывает о жизни и подвигах Александра Македонского. Эпос содержит не только исторические события, но и философские, нравственные и просветительские идеи. Эпос «Садди Искандарий» рассматривается не только как историческое событие, но и важный источник для духовно-нравственных исследований человечества. Это произведение занимает особое место в узбекской литературе и читается и исследуется до сих пор.

**Ключевые слова:** героизм, справедливость, исторический контекст, духовный поиск, узбекская литература, спасение, философия.

**Annotation:** "Saddi Iskandariy" is one of the epic epics, which is written by the great Uzbek poet Alisher Navoi. This work tells the story of the life and heroism of Alexander the Great. The epic includes not only historical events, but also the philosophical, moral and enlightenment ideas. Saddi Iskandariy is an important source not only as a historical event, but also for the spiritual and moral research of humanity. This work has a special place in Uzbek literature and is currently being studied.

**Key words:** heroism, justice, historical context, spiritual research, Uzbek literature, information, philosophy.

Alisher Navoiyning «Xamsa» dostonlari har biri alohida necha-necha tadqiqotlar mavzusi bo'lib keldi, yana bu ish davom etadi. Chunki ularning mazmun qabatlari benihoyadir. Bu dostonlar shaklan qanday mukammal bo'lsa, mazmunan undan ham uyg'un, koinot singari munazzam va had-hududsizdir. Islom aqidalariga ko'ra bir kecha-kunduzda o'qiladigan besh vaqt namoz «alXamsatu» deyiladi,

dinimizning besh ustuni (rukni) ham - tavhid (imon), namoz, ro‘za, zakot, haj - o‘ziga xos «xamsa» (beshlik)ni tashkil etadi. Demak, Nizomiy dostonlarining «Xamsa» turkumi sifatida talqin etilishi, unga Amir Xusrav va Navoiy javoblari bejiz emas. Alisher Navoiy «Saddi Iskandariy» dostonining muqaddima qismida bu masalaga maxsus to‘xtalib, «Xamsa»ning har bir dostoni yozilishini kunning ma‘lum vaqtlarida o‘qiladigan sahar (fajr), peshin (zuhr), asr, shom va xufton namozlari bilan qiyos etadi hamda «Xamsa»ni buyuk tog‘ cho‘qqisiga ko‘tarilish mobaynida besh o‘rinda to‘xtab, nafasni rostdash uchun bino etilgan besh oromgohga o‘xshatadi<sup>3</sup>. Bu oromgohlarni yaratish uchun shoir «Bilik taxti uzra chiqib o‘lturmagi», «Xayol elchisini» har tarafga choptirishi, «jon mulkidan» «maoniy sipohini» (ma‘nolar lashkarini) guruh-guruh (favj-favj) yetkazib berib turishi, ma‘no lashkarlari jam bo‘lgach, insonlar dilini zabt etishga kirishmog‘i, ya‘ni ma‘naviyat olamida jahongirlik san‘atini namoyish qilmog‘i lozim edi. «Xamsa» dostonlari ijtimoiy hayotni, turli toifalarning hayotdagi o‘rni va vazifalarini ularning butun ichki dunyosi va ruhiyati bilan bog‘liq holda tadqiq etadi, shu bilan birga undagi barcha botiniy rishtalar Tavhid e‘tiqodiga borib ulanadi. “Saddi Iskandariy” “Xamsa”dagi eng yirik doston bo‘lib, 89 bob va 7215 baytdan tashkil topgan. Dostonning muqaddimasi 14 bobni o‘z ichiga oladi. 1- bob an‘anaviy hamd – Allohning sifatlari ta‘rifiga bag‘ishlangan. Navoiy ushbu bobda tasavvuf ta‘limoti asosida olamning yaratilish tarixiga to‘xtalib o‘tadi: 9 qavat osmon, sayyoralar, yulduzlar tarkumining har biriga alohida ta‘rif beradi. Yaratganning buyukligiga hamdu sano aytadi. Bularning barchasidan maqsad eng oliy zot Odamni yaratish ekanligini ta‘kidlaydi: Karam birla xalq aylagay olame, Bu olamda maqsud anga odame. G‘araz odame anga olam tufayl, Nekim g‘ayri olamdur, ul ham tufayl. 2-bob munojotni o‘z ichiga oladi. Navoiy bobda Allohning karami kengligi haqida gapirar ekan, banda zoti mavjud ekan, uning gunoh ishlar qilishi tabiiy degan aqidani ilgari suradi:

Ilohiy, alarkim gunahkor ekin,

Sen o‘tkarmagan ne gunah bor ekin? Chu har mujrimekim, sen etting karam,

So‘rulmas hamul jurm ila o‘zga ham. Agar afv birla karam budurur,

Bori xalqning jurmi ma‘rufdurur.

Saddi Iskandariy ("Iskandar devori") — "Xamsa" Navoiyning yakunlovchi dostoni (1485). Asar 89 bob, 7215 bayt (1 bayt 2 qatorga teng)dan iborat bo‘lib, Navoiy ijodidagi hajman eng yirik epik asardir. Doston aruzning mutaqorib bahrida turkiyda yozilgan. Hamsanavislikning buyuk namoyandalari: Nizomiy Ganjaviy, Hisrav Dehlaviy, Abdurahmon Jomiy va Alisher Navoiylar Iskandar to‘g‘risida doston yozib, o‘z "Xamsa"lariga kiritganlar. Dastlab musulmon dunyosida Qur‘oni Karimning Kahf surasida nomi zikr etilgan hukmdor Zulqarnayn (Ikki shoxli, 18 sura, 83–98 oyatlar) hamda yunon sarkardasi va davlat arbobi Aleksandrni bitta shaxs deb bilishgan va u sharqda Iskandar Zulqarnayn nomi bilan mashhur bo‘lgan. Mazkur Iskandarnomalarga

Iskandar timsolidagi Aleksandr faoliyati mavzu qilib olingan. Ammo asarlarda Iskandar timsoli tarixiylikdan tobora uzoqlashib, badiiy to‘qima obrazga aylana borgan. Har bir hamsanavis Iskandar timsolida o‘z ideallarini talqin etishga harakat qilgan. Navoiy o‘z asari avvalida, safdoshlaridan farqli o‘laroq, tarixiylikka, ko‘proq tarix kitoblariga tayanib ish ko‘rganini yozadi. Navoiy bu o‘rinda o‘z asarida Iskandar haqidagi boblar izchilligining Qur’ondagi Zulqarnayn haqidagi oyatlarga hamda tarixiy shaxs Aleksandr faoliyatiga muvofiq kelishini nazarda tutgan. Dostonning „Saddi Iskandariy“ deb nomlanishida ham Qur’oni Karimning Navoiy uchun birlamchi manba bo‘lganligi seziladi. Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib qoidalarni katta olamdagi tartib qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa so‘fiyona talqin bo‘lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko‘rish mumkin. Masalan, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko‘rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlarini so‘raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyoning hoy-u havaslariga ortiqcha ruju qo‘ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan jahongir bo‘lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi. Doston turkiy adabiyotda ko‘plab naziralar yozilishiga turtki bo‘lgan (Abay, "Iskandar", XIX asr; Shayxzoda, "Iskandar Zulqarnayn", XX asr va boshqalar). Iskandar obrazi she‘riyatda an’anaviy obrazga aylangan Navoiy talqinida Iskandar odil shoh, u dunyoni kufrdan, jaholatdan tozalab, butun dunyoda adolatni joriy etish, bashariy tartib-qoidalarni katta olamdagi tartib- qoidalarga muvofiqlashtirish maqsadida xalqlar ustiga yurishlar qilgan. Bu esa so‘fiyona talqin bo‘lib, dostondagi muqaddima boblar, Iskandar voqealari hikoya qilingan boblar hamda unga ilova boblarda ham shoirning tasavvufiy qarashlari ustuvorligini ko‘rish mumkin. Masalan, Iskandar shisha sandiq yasab, dengiz tubiga tushadi, turfa ajoyibotlarni ko‘rib, vataniga qaytadi. U vafot etar ekan, bir qo‘lini tobutdan chiqarib qo‘yishlarini so‘raydi. Asarda Navoiy insonni bu foniy dunyo hoy- u havaslariga ortiqcha ruju qo‘ymaslikka chaqirib, garchi Iskandar jahonni egallagan jahongir bo‘lsada, u narigi dunyoga hech narsasiz ketayotganligiga ishora qiladi. Doston turkiy adabiyotda ko‘plab naziralar yozilishiga turtki bo‘lgan (Abay, "Iskandar", 19-asr; Shayxzoda, "Iskandar Zulqarnayn", 20-asr va boshqalar). Iskandar obrazi she‘riyatda an’anaviy obrazga aylangan. Shoir Iskandar tarixini yozmoqchi emas. Iskandar bilan bog‘liq voqealarning ma‘nosini ochmoqchi. Shuning uchun voqealar izoh va talqinlar, hikoyatlar, savol- javob va lirik chekinishlar bilan almashinib keladi. Iskandar taxtga chiqar ekan, o‘z atrofiga olimlarni to‘playdi. ularning maslahati bilan ish ko‘radi. U taxtni egallashga qiziqmaydi. Otasi unga taxtni topshirganida qattiq tashvishda qoladi. Oxiri xalqni yig‘ib, maslahat soladi. Xalq uning shoh bo‘lishini qattiq talab qilib turib olgandan keyingina Arastu unga toj kiygizadi.

Iskandar el oldiga shart qo'yadi. Kimning arz- dodi bo'lsa, shohni o'zi bilan teng ko'rib. ahvolini aytishini so'raydi. Shundan so'nggina davlat ishlariga kirishadi. Avvalo, mazlumning haqini haqlab, zolimning qo'lini kalta qiladi, adolatni yo'lga qo'yadi. Fuqaro ehtivojini hisobga olib, uni ikki yillik soliقدan ozod etadi. Dostonda oldin adolatning ta'rifi beriladi. Bu ta'rif hadislar vositasida tushuntiriladi. Masalan, bir soatlik adolat farishtalarning, dunyodagi barcha insonlarning toatidan afzal degan hadis keltiriladi. Dostonning asosiy qahramoni Iskandar Zulqarnayn bo'lib, u yovuz kuchlarga qarshi kurashadi. Asar davomida Iskandarning jasratlari, adolati va ma'rifatga bo'lgan intilishi aks ettiriladi. Dostonning markazida insonning ruhiy izlanishlari, adolat, haqiqiy kuch va bilimning ahamiyati haqida chuqur fikrlar mavjud. "Saddi Iskandariy" dostonida Navoiy insoniyatning maqsadi, axloqiy qadriyatlar va bilimga intilish haqida fikr yuritadi. Iskandarning sarguzashtlari orqali adolat va haqiqiy kuch tushunchalari taqdim etiladi. Doston, shuningdek, insonning ichki kurashlari va o'z-o'zini anglash jarayonini ham o'z ichiga oladi. "Saddi Iskandariy" dostonining o'zbek adabiyotidagi o'rni beqiyosdir. Bu asar nafaqat badiiy adabiyotda, balki tarixiy va falsafiy fikrlarda ham muhim ahamiyatga ega. Doston ko'plab ijodkorlarga ilhom manbai bo'lib xizmat qilgan va hozirgi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan. "Saddi Iskandariy" dostonining boy ma'nolari, axloqiy g'oyalari va falsafiy izlanishlari uni o'zbek adabiyotining durdonalaridan biriga aylantiradi. Alisher Navoiy tomonidan yaratilgan bu asar, insoniyat tarixida adolat, bilim va ma'rifatning ahamiyatini yorituvchi muhim manba sifatida qabul qilinadi. Dostonni o'qish orqali biz nafaqat tarixiy voqealarni, balki inson ruhiyatining chuqur qatlamlarini ham anglash imkoniyatiga ega bo'lamiz.

#### Foydalanilgan adabiyot va havolalar

1. Muhiddinova X., Salisheva Z., Po\_latova X., O\_zbek tili (Oliy ta'lim muassasalari rus guruhlar uchun darslik). – Toshkent: O\_qituvchi, 2012.-288b.
2. Husanov N., Xo'jaqulova R., Dilmurodova N. O\_zbek tili. Darslik. – Toshkent: —Iqtisod-moliya, 2020.-515 b.
3. Lafasov U. O\_zbek tili. O\_quv qo\_llanma. – Toshkent: ToshDSHI, 2016.-532b.
4. <https://asarlar.uz/kitob/saddi-iskandariy>
5. <https://interonconf.org/index.php/pol/article/download/6277/5418/5294>